

**IKKINCHI JAHON URUSHI VA
O‘ZBEKISTON XALQI:
TADQIQOTLAR**

ILMIY MAQOLALAR TO‘PLAMI

2-jild

**“O‘ZBEKISTON”
TOSHKENT – 2022**

<i>Ismailova J.X.</i>	
Maktublarga bitilgan tarix.....	80
<i>Xamidova M.A.</i>	
Muqimiy nomidagi O‘zbek davlat musiqali teatri repertuarida urush mavzusidagi spektakllar	87

XALQARO HAMKORLIK NATIJALARI

<i>Raximov M.A., Nursaidova M.Sh.</i>	
Fransiya Qarshilik ko‘rsatish harakatida O‘zbekistonliklarning ishtirokiga oid yangi arxiv hujjatlari.....	98
<i>Kaplyukov V.V.</i>	
Sverdlov viloyati Jamoat tashkilotlari hujjatlari markazidagi hujjatlarda O‘rta Ural va O‘zSSR munosabatlari xususida (1941–1945-yillar)	113
<i>Sa‘dullayev K.Q.</i>	
Bedarak yo‘qolgan yurtdoshlarni qidirish bo‘yicha dastlabki natijalar	129

JANG MAYDONLARIDA O‘ZBEKISTONLIKLAR

<i>Ikromov H.I.</i>	
Shoira tasvirlagan Farhod.....	143
<i>Radjapov E.G.</i>	
Sobirjon Oxunjonov.....	167
<i>Xolboyeva Z.S.</i>	
O‘zbekistonlik uchuvchilarning Ikkinchi jahon urushidagi ishtiroki.....	172
<i>Usmonov F.Q.</i>	
Jangohdan qaytmagan ota va o‘g‘il Hakimovlar.....	188

SOBIRJON OXUNJONOV

Erkin Ganiyevich RADJAPOV,

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish

vazirligi bosh mutaxassisi,

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Insoniyat tarixida mislsiz qirg'inlar hamda ulkan yo'qotishlarga sabab bo'lgan Ikkinchi jahon urushining bo'lib o'tganiga ham qariyb sakson yildan oshdi. Mazkur qirg'inbarot urush ko'plab vayronkorlik hamda iqtisodiy inqirozga sabab bo'lishiga qaramasdan hanuz tarixchi olimlar, jamoatchilik hamda urush ishtirokchisi bo'lgan mamlakatlar, urush faxriylari tomonidan xotirlab kelinmoqda. Mazkur xotiralar urushning naqadar vayronkor hamda bashariyatning eng katta dushmani ekanligi, chegara va qurbon tanlamasligini eslatib turadi.

General-leytenant Sobirjon Oxunjonov Ikkinchi jahon urushida qatnashib, jangohlarda mardlik va jasorat namunalarini ko'rsatgan, front maydonlaridan omon chiqib, Vataniga qahramon sifatida qaytgan yurtdoshlarimizdan biri hisoblanadi.

Sobirjon Oxunjonov 1919-yil 10-oktabrda Toshkentning Sebzor mahallasida ishchi oilasida tug'ildi. Bolaligidan turmush sinovlariga duch keldi, onasidan erta ajralib, otasi qo'lida tarbiya topdi.

Toshkentdagi 22-o'rta maktabni tamomlagach, hayotini harbiy soha bilan bog'lagan S. Oxunjonov 1940-yilda harbiy piyodalar bilim yurtini tamomladi va mashaqqatli mehnati hamda kasbiga bo'lgan sadoqati tufayli vzvod va rota komandirligidan general-leytenantlikkacha bo'lgan yo'lni sharafla bilan bosib o'tdi¹.

Harbiylikka bo'lgan qiziqishi xususida u "*Komandirlikka havasimni mashhur sarkarda Mirkomil Mirsharopov (1900–1938)*"² sabab bo'lgan.

¹ *Искандар Раҳмон. Тўрт баҳодирнинг бири // "Ўзбекистон адабиёти ва санъати" газетаси. – 1995 йил. – 18 (3305)-сон. – Б. 1.*

² *Mirkomil Mirsharopov (1900–1938) – harbiy arbob. Avliyoota (hozirgi Tarozi) shahrida tug'ilgan. Rus-tuzem maktabini tugatgan (1914-y.). 1917-yilda Toshkentga ko'chib kelgan. Xorazm Xalq Sovet Respublikasi harbiy noziri (1921-y.), nozir muovini*

O'ynoqlagan, osmonga sapchigan otini shporli xrom etigi bilan niqtayotgan, kiyimlari qaddi-bastiga nihoyatda yarashgan, xipcha belli, keng yelkasi osha portupeya (belga yoki yelkaga taqib yuriladigan, qurol osish uchun xizmat qiladigan tasma) taqqan, bir tomonida nagan, bir tomonida durbin, chap yonboshidagi qo'li qilichi sopini mahkam ushlagan, bosh-oyog'idan ayricha kuch-g'ayrat, shijoat yog'ilib turgan sarkarda ko'rinishidan o'ta zavqlanganim kechagidek ko'z o'ngimda. "Men ham komandir bo'laman. Mirkomil Mirsharopov bo'laman" dedim o'sha kuni o'zimga o'zim"¹, – deya xotirlaydi.

Ikkinchi jahon urushi boshlangach, Oxunjonovlar xonadonidan to'rt kishi frontga chaqiriladi.

Katta akasi Shukurjon Oxunjonov²ning Ikkinchi jahon urushi boshlanishidan bir kun avval nikoh to'yi bo'lib o'tgan edi. To'yning ertasiga urush boshlangani to'g'risida xabar kelishi bilan u tengdoshlari qatori frontga jo'natiladi va artilleriyachilar safida 1943-yilning avgustida Belorussiyada qahramonlarcha halok bo'ladi.

O'rtancha akasi Shokirjon Oxunjonov³ esa 325-alohida gvardiya minomyotchilar divizioni "Katyusha" raschyotining (raschyot – artilleriya avtomati, pulemyot, raketa tizimi va boshqalarga xizmat ko'rsatadigan kichik to'liq shtatli harbiy qism) komandiri sifatida 1943-yil mart oyida Rjev⁴ shahri ostonalarida bo'lgan jangda qahramonlarcha halok bo'lgan.

(1924-y.). U XXSRda milliy qo'shin tuzishga alohida e'tibor qaratdi. Moskvadagi harbiy akademiyada o'qidi (1925–1929). 19-O'zbek tog'-otliq diviziyasi komandiri va komissari (1932–1935). 1938-yilda "xalq dushmani" sifatida nohaq otib tashlandi // Radjapov E. Qo'mondonning mash'um taqdiri. Tarixning noma'lum sahifalari. Ilmiy axborot va maqolalar, hujjat va materiallar, xotiralar. Oltinchi kitob. – Toshkent: UNLIMITED PRINT. 2017. – B. 104–118.

¹ Ўрол Ўзбек. "Кўк кўйлак"дан генералликкача // "Наврўз" жамғармаси газетаси. – 1997 йил 27 сентябрь. – 10 (68)-сон. – Б. 2.

² *Shukurjon Oxunjonov* – 1912-yilda tug'ilgan. Ukraina va Belorussiyani fashistlardan ozod qilishda qatnashgan. Qabri Ukrainaning Xarkov ostonasida.

³ *Shokirjon Oxunjonov* – 1914-yilda tug'ilgan. Kalinin viloyati (hozirgi Rossiya Federatsiyasining Tver viloyati)ni fashistlar Germaniyasidan mudofaa qilishda ishtirok etgan. Qabri Rossiya Federatsiyasining Ijevsk shahrida.

⁴ *Rjev* – Rossiya Federatsiyasi Tver viloyatida 1216-yilda asos solingan qadimiy shaharlardan biri.

Ukasi No‘monjon Oxunjonov¹ Lvov shahri yaqinidagi janglardan birida 1944-yil 15-iyulda halok bo‘lgan.

Keyinchalik Sobirjon Oxunjonov shunday xotirlaydi: *“Bilmadim, kimning baxtiga, balki jangda halok bo‘lgan uch jigarbandining dog‘ida adoyi tamom bo‘lib, ularning ham umrini menga qo‘shib berishini Yaratgandan astoydil so‘ragan otamning iltijosi inobatga o‘tdimi, haytovur, men Moskva ostonalaridan to Berlingacha bo‘lgan janglarda qatnashib, bir necha bor yarador bo‘lib, davolanib, ajalim yetmagan ekan, shu kunlarga yetib kelganimga shukrlar qilaman. Ayniqsa, Volga bo‘yidagi janglar, o‘zbekistonlik yigitlarning ko‘rsatgan jasoratlari sira yodimdan chiqmaydi”*².

S. Oxunjonov 1940-yilda Toshkent piyoda askarlar harbiy bilim yurtini tamomlab, Ikkinchi jahon urushining bir necha front maydonlaridagi jangovar harbiy harakatlarida ishtirok etdi. U 1941-yilning 1-avgust kuni Belgorodning Zalese qishlog‘ida 30 kursantning komandiri sifatida ilk marta jangga kirdi³.

Kiyev mudofaasida ishtirok etib, 1941-yilning oktabrida yengil yarador bo‘ladi. Yarador bo‘lib qaytgan S. Oxunjonovni 100 kishilik 94-alohida o‘qchi brigadasining 94-avtomatchilar rotasiga komandir etib tayinlashadi. Farg‘ona, Namangan va Marg‘ilon shaharlaridagi harbiy tayyorgarlikdan so‘ng, S. Oxunjonov komandirligi ostidagi 94-alohida o‘qchi brigadasining 94-avtomatchilar rotasi 1942-yil 18–20 avgust kunlari Farg‘onadan to‘g‘ri frontga yuborildi⁴.

S. Oxunjonov Moskvada jangovar mashqlarda ishtirok etgach, Stalingrad frontiga yetib keldi. U safdoshlari bilan birgalikda Don qirg‘og‘idagi Serafimovich platsdarmida 1-gvardiya armiyasi, so‘ngra

¹ No‘monjon Oxunjonov – 1918-yilda tug‘ilgan. Ikkinchi jahon urushida qatnashib, G‘arbiy Ukrainani himoya qilish jarayonida halok bo‘lgan. Qabri Ukrainaning Ternopol shahrida.

² *Искандар Раҳмон. Тўрт баҳодирнинг бири // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси. – 1995 йил. – 18 (3305)-сон. – Б. 1.*

³ Ўрол Ўзбек. “Кўк кўйлак”дан генералликкача // “Наврўз” жамғармаси газетаси. – 1997 йил 27 сентябрь. – 10 (68)-сон. – Б. 2.

⁴ *Охунжонов Собиржон. Уруш ўз номи билан... / “Туркистон” газетаси. – 1993 йил 2 февраль сони. – Б. 3.*

3-armiya tarkibida 278, 266-o'qchi diviziyalar, 59-gvardiya o'qchi diviziyasi va boshqa harbiy qismlar bilan hamkorlikda shiddatli janglarda ishtirok etdi¹.

S. Oxunjonov bo'lg'usi general Fayzulla Norxo'jayev bilan bir safda jang qilgani ham alohida tarix². Uning matbuot nashrlarida e'lon qilingan xotiralari orqali mayor F. Norxo'jayev rahbarligidagi artilleriya divizioni va Mamatqul Mustafoyev, Mo'ydin Dadaboyev, Ismoiljon To'xtasinov boshliq batareyalarning to'plari dushman qarshiligini yengib, Pervomaysk, Ilyinka, Selivanovka, Glubokiy, Kamensk, Astaxovka, Mixaylovka kabi stansiya va shaharlarni egallashda qahramonlik ko'rsatganliklari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish mumkin³.

Ikkinchi jahon urushi tugagandan so'ng S. Oxunjonov turli lavozimlarda faoliyat ko'rsatib, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etdi. 1946-yilda maxsus topshiriq bilan Xitoyda bo'lib qaytgach, 1946–1947-yillarda Turkiston harbiy okrugi shtabining tezkor tayyorgarlik, umumiy tayyorgarlik bo'limi boshlig'i yordamchisi, 1947–1951-yillarda Surxondaryo viloyati Boysun tumani harbiy komissari, 1951–1952-yillarda Surxondaryo viloyati harbiy komissarining o'rinbosari, 1955–1958-yillarda Turkiston harbiy okrugining Olmaota shahrida joylashgan 203-piyoda diviziyasining havo mudofaasi boshlig'i, 1958–1964-yillarda Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on shahrida joylashgan 80-gvardiya o'quv motoo'qchilar diviziyasining 55-gvardiya motoo'qchilar polki komandiri, 1964–1967-yillarda Farg'ona viloyati harbiy komissari, 1967–1971-yillarda O'zbekiston Respublikasi harbiy komissarining o'rinbosari, 1971–1986-yillarda fuqaro mudofaasi respublika shtabi boshlig'i, boshlig'ining o'rinbosari kabi lavozimlarda faoliyat yuritdi.

¹ *Охунҷононов Собирҷон*. Волга бўйидаги жасорат / “Тошкент оқшоми” газетаси. – 1993 йил 1 февраль. – 19(8217)-сон. – Б.3.

² *Fayzulla Norxo'jayev* – 1911-yil 25-fevralda Namangan viloyati Chust volostining Qiziltepa qishlog'ida tug'ilgan. Sovet-yapon urushi hamda ellik yil mobaynida SSSR Qurolli Kuchlari saflarida, bir qator yuqori harbiy rahbarlik lavozimlarida samarali mehnat qilgan. 1958-yilda general-mayor, 1972-yilda esa artilleriya general-leytenant harbiy unvonlari bilan taqdirlangan.

³ *Охунҷононов Собирҷон*. Уруш ўз номи билан... / “Туркистон” газетаси. – 1993 йил 2 февраль сони. – Б. 3.

Sobirjon Oxunjonov 1973-yilda general-mayor, 1980-yilda general-leytenant, 1982-yilda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, 1989-yilda esa O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi unvonlari bilan taqdirlandi¹.

S. Oxunjonov nafaqaga chiqqach, qizg‘in jurnalistik faoliyat bilan shug‘ullandi. Davriy matbuot nashrlarida uning Ikkinchi jahon urushi va unda ishtirok etgan o‘zbekistonlik jangchilarning qahramonliklari to‘g‘risida ko‘plab xotiralari, shuningdek, “O‘zbekiston fuqaro muhofazasiga 50 yil to‘ldi” (Toshkent, 1982), “Fuqaro muhofazasi tizimidagi sanitariya otryadi” (Toshkent, 1982), “Hozirgi bosqichda O‘zbekiston fuqarolik mudofaasi” (Toshkent, 1983), “Ulug‘ Vatan urushidagi g‘alabaning olamshumul ahamiyati” (Toshkent, 1985) kabi kitoblari nashr etildi².

U o‘n besh yil mobaynida respublika televideniyesida ham “Mardlik – mangulik” nomli ko‘rsatuvning boshlovchisi hamda muallifi sifatida samarali mehnat qildi.

Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, general-leytenant Sobirjon Oxunjonov O‘zbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Mo‘g‘uliston Xalq Respublikasi, Chexoslovakiyaning qator orden va medallari bilan taqdirlangan.

General-leytenant Sobirjon Oxunjonov 2012-yil 13-aprel kuni 92 yoshida vafot etdi.

¹ Oxunjonov – // <https://qomus.info/encyclopedia/cat-o/oxunjonov-uz/>

² Ўрол Ўзбек. “Кўк кўйлак”дан генералликкача / “Наврўз” жамғармаси газетаси. – 1997 йил 27 сентябрь. – 10 (68)-сон. – Б. 2.